

## **SUYAK MUSHAK VA BIRIKTIRUVCHI TO'QIMALARDADA HAMSHIRALIK PARVARISHI**



**Xo'jiyev Azimjon Axmedovich**

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*jamoat salomatligi texnikumi*

*Terapiya fani o'qituvchisi*

Bo'g'im kasalliklarining klinik xususiyatlarini bayon qilishdan oldin, odam organizmidagi bu sistemaning anatomik-fiziologik xususiyatlari to'g'risida bir oz to'xtalib o'tish lozim. Bo'g'im, bo'g'imni o'rab turgan bo'g'im xaltachasi va biriktiruvchi to'qimadan tashkil topgan, asli bo'g'im bo'shlig'i nazarda tutiladi. Bularga suyaklarning tog'ay bilan qoplangan bo'g'im oxirlari (epifizlari) yopishgan.



Suyaklar bir-biri bilan bo‘g‘imlar yordamida bog‘lanadi. Suyaklarning bo‘g‘imli yuzalari tog‘ay to‘qimalari bilan qoplangan bo‘lib u almashinuv jarayonlari buzilganda va kuchli jismoniy zo‘riqishlarda oson shikastlanadi. Bo‘g‘im paylar, boylamlarbo‘g‘im xaltalari yordamida mustahkamlanadi. Bo‘g‘imlar pishiq bo‘lib, harakat vaqtida siljib ketmasligi lozim. Pay va boylamlar muskullarning bir qismi bo‘lib, ularning qisqarish vaqtida bo‘g‘imlarda ham harakat paydo bo‘ladi. Bo‘g‘im shikastlanganining belgilari: og‘riq, shish, deformatsiya, harakatlanishining cheklanishi, yoki to‘liq yo‘qolishi. Ba’zi kasallikkarda bo‘g‘im atrofidagi (biriktiruvchi) to‘qima zararlanib deformatsiya, qiyshayish, kam harakatlikka olib keladi




Revmatoid poliartrit Revmatoid artrit –biriktiruvchi to‘qimaning surunkali tizimli kasaligi bo‘lib, aksariyat periferik bo‘g‘imlarning eroziv-destruktiv poliartrit tipida avj oluvchi zararlanishi bilan kichadi. Bu kasallik boshqa sistemalarning zararlanishi bilan davom etadi, asosan 20-45 yoshli odamlar, ko`proq ayollar kasallanadi. Revmatoid poliartrit bu-bugimlarning nospetsifik yalliglanishi bulib, ularning shakli o‘zgarishi ya’ni deformatsiyaga uchrashi bilan namoyon buladigan surunkali kasallikdir.





Uchrash darajasi aholi o'rtasida 0,5-1,8% ni tashkil qiladi. Ayollarda erkaklarga qaraganda 3 marta ko'proq kuzatiladi. 80% hollarda kasallik 35-50 yoshga to'g'ri keladi. Kasallik boshlangandan 20 yildan keyin bemorlarning 60-90%ni mehnat qobiliyatini yo'qotadilar, 1/3 qismi batamom nogiron bo'lib qoladilar. A.B. Garro 1858 yilda Revmatoid artrit atamasini taklif qildi va 1892 yilda podagradan farqlab berdi



### **Revmatoid artrit kasalligining etiologiyasi va patogenezi:**

Nasliy moyillik(Autpimmun reaksiyalarga nasliy moyillik )•Infektion omil(Paramiksoviruslar, Gepatoviruslar, Gerpesviruslar)•Trigger omil(Sovqotish,Giperinsolyasiya, Intoksikasiya, Mutagen dorilar, Endokrinopatiyalar, Stress)•Ayollarda 24 oy davomida bolani ko'krak suti bilan boqish RA rivojlanishi xavfini 2 barobar kamaytiradi•Ekzogen(viruslar, oqsillar, bakterial superagentlar va boshqalar)•Toksik(tamaki komponentlari) •Endogen(II tipdagi kollagen, stressor oqsillar va boshqalar)•Nospesifik(jaroxatlar, infeksiya, allergenlar va boshqalar)sabab bo`ladi.



## **TASHXIS**

1. Oxirgi 6 xaftha davomida 1 soat davom etuvchi ertalabki karaxtlik•
  2. Oxirgi 6 xaftha davomida 3 yoki undan ortiqbo'g'implarda shish•
  3. Oxirgi 6 xaftha va undan ko'p vaqt davomida kaft-barmoqva proksimal falangalararo bo'g'implarda shish•
  4. Bo'g'implar jaroxatlanishining simmetrikligi•
  5. bo'g'implarda tipik rentgenologik o'zgarishlar (eroziyalar, bo'g'im oldi osteoporozi)
  
  - 6.Teri osti revmatoid tug'unchalari•
  7. Qon zardobida revmatoid omil aniqlanishi
- Bo'g'implar shishib, qizarib turadi.Mahalliy harorat ko'tariladi.Og'riq kuzatiladi. Og'riq ba'zi bemorlarda o'rindan turgandan so'ng 20-30 daqiqa o'tgach kamayib yuqoladi, ba'zilarda esa kun bo'yi bezovta qiladi. Og'riqlar kasallik rivojlangan sari asta-sekin kuchayib boradi. Og'riq harakat qilganda kuchayadi, doimiybo'lib, bo'g'imdani-bo'g'imga kuchib yurmaydi. Bemorlarda ertalab

uyg'onganda «ertalabki karaxtlik» kuzatiladi.«Qolipdagidek» yoki taqalangandek sezishi va tana harakati cheklanishi kuzatiladi.Kasallik uzoq davom etgan bemorlarda shikastlangan bo‘g‘imlarda kuchli deformatsiya rivojlanib, ularning harakati keskin cheklanadi. Ba’zida suyaklarning bo‘g‘im ichidagi uchlari bir-biri bilan yopishib bitib ketadi-ankiloz deyiladi.Panja-falanga bo‘g‘imlarida ulnar tomonga, ya’ni 5 barmoq tomonga og‘ib turishi-«ulnar deviatsiya»

yoki «Morj suzgichi kafti» rivojlanadi. Kaft-falanga bo‘g‘imi bukilgan holda qotib qoladi (kontraktura).Bo‘g‘imlar faoliyati cheklanib yuqolishi mumkin-bunday bemorlar oddiy ehtiyojlarini ham bajarolmay qoladilar. Kasallik qaytalanib turishi natijasida yangi bo‘g‘imlar shikastlanadi.Bo‘g‘imlarning tashqi tomonida revmatoid tugunchalar paydo bo‘ladi, ular paypaslaganda og‘rimaydi, qattiq, siljiydi. Bo‘g‘imlarda suyuqlik yig‘iladi.Faollik darajasiga qarab revmatoid poliartrit O, I, II, III darajali bo‘ladi.

Ichki organlarning zararlanishi Revmatoid poliartritda ichki organlar ham zararlanadi.Yurakda miokardiodistrofiya kuzatiladi yoki endokardit rivojlanadi.O`pkalarning zararlanishi-surunkali pnevmoniyalarga olib keladi.Buyraklarning zararlanishi-glomerulonefritlarga olib keladi.Limfa tugunlari kattalashadi.Jigar ham zararlanadi Qondagi o`zgarishlar: Leykotsitoz, ECHT kuchayadi, C-reakтив oqsilga qo`yilgan reaksiya musbat bo`ladi, fibrinogen miqdori ko`payib ketadi, g-globulinlar ortadi, albuminlar kamayadi.

Reitgenologik tekshirishda-osteoporoz, bo‘gimlararo tirqish torayadi RA ni kechki bosqichi uchun xarakterli rentgenologik o`zgarishlar: ko`plab eroziyalar, turg'un deformatsiya va ankilozlar

### **Davolash.**

1.Xinolin qatoriga kiruvchi dorilar: delagil yoki plakvenil 0,2-0,25g kechki ovqatdan so‘ng yil davomida ichiladi.

2. Salitsilatlar-atsetilsalitsilat kislota, natriy salitsilatlar buyuriladi.  
3.Nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalar -butadion, indometatsin, reopirin, voltaren, ortofen.

4.Oltinli tuzlar –xrizoterapiya o`tkaziladi. Krizanol 5% li-1ml dan qo‘llaniladi  
5.Revmatoid artritning ogir turlarida (III darajasida) glyukokortikoid gormonlar qo‘llaniladi. Prednizolon 0,005 g, deksametazon 0,04g, bo‘g‘imlar ichiga 30-100 mg dan gidrokortizon yuboriladi.

6.Fizioterapiya-bo‘g‘imlarga UVCH, diatermiya, massaj, balchiqlar rodonli mineral suvlardan vannalardan foydalaniladi.

7. Kasallikni remissiya davrida sanatoriya va kurortlarda davolanadi.

I-gormonal davo: Prednisolon, MethypredKenalog, diprospan bo‘g‘im orasiga u

II –YaQNPSOG-2 Inhibitorlari      KetonalBrufenumOrtophenenumIII – PhysiotherapiyaIV -Immobilizatsiya, orthopedikchora-tadbirlarJarrohlik usuli bilan davolashuSynovektomiyaBo’g’imni protezlashuArtrodezuQo’ panjasida jarrohlik muolajalariOldini olish.Surunkali yallig‘lanish o‘choqlarini davolash.Sovqotishdano‘zini asrash.Organizmni chiniqtirish. Allergiya kasalliklar bilan ogrigan bemorlarni «D» nazoratiga olish.Kasallikni qo`zishini oldini olish

**Foydalanimadabiyotlar:**

1. I.Haydarov.G’.O. “Ichki kasalliklar”Toshkent “Abu Ali ibn sino”nashriyoti 2002 yil.
2. II.Ziyaeva M.F “Terapiya” “Ilm ziyo” nashriyoti 2014 yil.
3. III.Tursunov S.T. “Sog`lom turmush tarsi”Toshkent “Ilm ziyo”nashriyoti 2006 yil.Qo`shimcha adabiyotlar:
4. IV.Qarshiboeva M.T. “Terapiyada hamshiralik ishi”metodik qo’llanma. Toshkent, 2007 yil.V.Internet saytlari [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz). [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz).[www.Lexuz.uz](http://www.Lexuz.uz).

